

2-TOM, 5-SON

CHINGIZXON DAVLATIDA QONUNLAR TO'PLAMI YASOG'NING O'RNI.

**Mutallibjonov Bobirmirzo**

University of Business and Science, Tarix yo'nalishi 1 - bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: **Mahmudov.M**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Chingizxon asos solgan mo'gullar imperiyasida uzoq yillar davomida amalda bo'lgan "Yaso qonunlari"ning mazmuni, yasoq qonunlari orqali tashkil etilishi, boshqarilishi hamda jazo turlari keltirib o'tilgan.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье описаны организация, управление и виды наказания армии, составлявшей основу огромной империи, созданной Чингисханом, посредством законов военной службы. Дготовка, право, право, стимулирование.

**ABSTRACT**

In this article, the content of the "Yaso Laws", which have been in force for many years in the Mongol Empire founded by Genghis Khan, organization, management and types of punishments through the Yaso Laws are mentioned.

**Keywords:** crime, punishment, Yaso, Genghis Khan, theft, management, military training, law, zazo, incentive.

**Kalit so'z:** jinoyat, jazo, Yaso, Chingizxon, o'g'rilik, harbiy tayorgarlik, huquq, jazo, ragbat.

Davlatchilikning asosi tamoillaridan biri harbiy soha har bir davlatning tayanchi bulib kelgan. Shunday davlatlardan biri Mugullar davlatida harbiy sohasi asosiy rol o'ynagan. Mugullarda, qabilalar ittifoqidan ulkan qudratli impire davlatga qarab uning armiyasi asosiy o'rin tutgan. Bunday qudratli qushinni boshkarish uchun albatta, qattiy intizom talab etilgan. Intizomni asosini esa o'sha davr ananalariga muvaffaqiyatli qonunlar tashkil etgan.

Oz boshqaruv harbiy kuchlarni boshkarish va tartibga solish uchun qonunlar majmuasi kerak edi. Bu Chingizxon tomonidan tartibga solingan Yasoqlanishini boshqarish vazifalari to'g'risida qaror qabul qilindi.

Dastavval Chingizxon yasog'i, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladigan turfa tadbirlar, muayyan gunohlar uchun beriladigan jazo choralarini o'zida mujassam qilgan. Chingizxon yasog'i to'la shaklda saqlanib qolmagan, uning ayrim parchalari bizgacha yetib kelgan.



## 2-TOM, 5-SON

Chingizkhon tashkil qilgan Yasokida ilmiy izlanishlar olib borgan tarixchilar asosan Maqriziy va Rashid ad-Din tomonidan olingan ma'lumotlarga tayanib kelganlar. Chingizxon yasog'i Buyuk yasog', Buyuk yasa (mo'g'ulcha "jasoq" - qonun, qaror, jazolash so'zining turkiy "yasog" shakli) - Chingizxon tomonidan mo'g'ul qabilalarining O'mon daryosining boshlanish joyida chaqirilgan qurultoyi (1206)da qabul qilingan qonunlar majmui, o'rta asrlar mo'g'ul huquqi to'g'risidagi asosiy yozma yodgorlikdir. Chingizxon amriga binoan yozilib, "Oltun daftar" (chingiziy xonlarning rasmiy tarixi) bilan birga xon xazinasida saqlangan. Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi bilan Chingizxon yasosini takomillashtirish, yangi qonunlar bilan to'ldirish zarurati tug'ilgan. 1218-yilda unga muhim tuzatishlar kiritilgan. Chingizxon yasog'ining so'nggi tahriri 1225-yildagi qurultoyda qabul qilingan<sup>1</sup>. Juvayniy (13-asr)ning yozishicha, Chingizxon yasosi uyg'ur yozuvida tumor shaklida bitilgan bo'lib, u "Yasa nomayi buzurg" ("Yasa buyuk kitobi") deb nomlangan. Chingizxon yasog'ining parchalari musulmon tarixchilari Juvayniy, Rashiduddin, Ibn Battuta, Taqyaddin Makriziy; yevropalik sayyohlar Plano Karpini, Billem Rubruk, Marko Polo (13-14 asrlar) asarlarida saqlanib qolgan. 1240-yilga oid - "Mo'tullarning maxfiy tarixi" va xitoy manbalarida ham yasog' haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud.

**Yasog'** o'rta asrlar mo'g'ul huquqi to'g'risidagi asosiy manba. Mo'g'ullar davlatida (13-15 asrlar) mavjud qonun qoidalarni buzgan, ularga itoat qilmagan shaxslarga beriladigan jazo. Tarixiy obidalarda qayd etilishicha, Yasog'ga tortilgan jinoyatchilar aksariyat qatl etilgan, oltin o'rda xonligi tomonidan istilo qilingan mamlakatlardan, keyinchalik Moskva davlati va chor Rossiyasi tomonidan mazlum xalqlardan natura bilan undiriladigan soliq.

15-18 asrlarda Vo'lga bo'yi, 17-20 asr boshlarida Sibirda ovchilik bilan shug'ullangan rus bo'lmagan xalqlardan olingan. Jazo mo'yna, ba'zan chorva mol bilan to'langan. Yasog' ning to'lanishi tobelikni ifodalash shakllaridan biri bo'lgan. Har bir qabila yoki urug' uchun alohida Yasog' belgilangan. Kungur tatarlari va boshqirdlar uchun Yasog' yer solig'i, Sibirning ayrim xalqlari uchun jon solig'i bo'lgan, yakutlarda chorva mol soniga qarab to'langan. 18-asrdan Yasog' pul to'lovi bilan almashtirilgan (Volga bo'yida 1720-yillardan, Sibirda 1822-yildan). Yasog' to'plovchilar (yasog'chilar)ning mansablarini suiiste'mol qilishlari hukumatni yasog' majburiyatini yasog' komissiyalari orqali tartibga keltirishga majbur qilgan. Yasog' oz miqdori 1917-yildagi Fevral inqilobiga qadar saqlanib qolgan. Chingizxon yasosining so'nggi tahriri 1225-yildagi qurultoyda qabul qilingan. Chingizxon yasog'i bizgacha yetib kelmagan, 33 ta parchasi va Chingizxonning davlat, harbiy va jinoyat huquqlariga oid 27 ta nutqning mazmuni – biliklar, parchalar tarzida yetib kelgan. Unda jinoyat va jazo, harbiy qismlarni boshqarish va ularda qat'iy tartib intizomni joriy etish, oila va nikoh, mulk masalalariga e'tibor berilgan. Yasog' qonunlariga ko'ra

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon\\_yasosi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon_yasosi)



## 2-TOM, 5-SON

kattaroq o'g'rilik, masalan, ot, tuya va boshqa narsalarni o'g'irlaganlik uchun – o'lim jazosi, kichikroq o'g'rilik uchun, agar o'g'ri o'g'irlangan narsalarning narxidan uch barobar (boshqa ma'lumotlarga qaraganda to'qqiz barobar) ortiq haq to'lay olmasa, 7 dan 700 tagacha qamchi urish bilan jazolangan<sup>2</sup>. Yasoning 29, 30, 31- bandler bu jinoyat uchun qattiq jazolar belgilagan. “Bir otni o'g'irlagan kishi uning egasiga 9 ta ot berishga majbur. Uning mulki bo'lmasa, o'rniga farzandlari olinadi. Farzandi ham bo'lmasa (bir qo'y kabi so'yilishi) qatl qilinishi lozim” Yasoning 30-bandi zino, o'g'rilik va yolg'onni taqiqlaydi, bunday jinoyatlarga o'lim jazosini beriladi<sup>1</sup>. Mugullarda qo'mondonlar tug'ilish huquqiga qarab emas, hizmatlariga yarasha mukofotlanardilar. Askarlar 14 yildan 17 yilgacha harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lganlar. 100 ming kishilik qo'shindan tashkari ulardan saralab olingan 10 ming kishilik mahsus gvardiya mavjud bo'lgan, undan xon qarorgohini himoya qilishda foydalangan. Chingizxon davlatining asosiy ustuni qushin bulgan. Tabiyki, Yasokda ham harbiy sohaga alohida etibor qaratilgan. Ainiksa, harbiy tayyorgarlik masalasi muhim kasb etgan. Harbiy taktik tayorgarlik uchun mughillar ovdan keng foidalanganlar. Chingizxon tomonidan ov harbiy tayorgarlikning asosi sifatida etirof etilgan. Yasokda bu hakda shunday deyiladi: “Mug'ullar urush bilan band bulmagan vaqtda ov bilan shug'ullanishlari kerak.” Ular o'g'illariga yovvoyi hayvonni qanday ovlashni o'rgatishlari kerak, toki o'g'lonlar ular bilan kurashda tajriba orttirsinlar va kuch-kuvvatga to'lsinlar, charchoqni yengga olsinlar va (uzlarini) ayamadan dushmanga qarshi kurashsinlar deb<sup>3</sup> takidlangan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki chingizxon yasog'i juda qattiq va shavqatsiz bo'lgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib shuni aytishimiz kerakki chingizxon bu qonunlari bilan tinchlikni farovonlikni taminlashga uringan. Bilamizki mo'g'ullar har taraflama kuchi bo'lganlar ayniqsa ot minish kamondan o'q uzishda ancha mahoratli bo'lganlar, ular janga kirishdan oldin albatta o'zlariga qo'shimcha ravishda bitta ikkkita ot olib yurganlar, va bosib olgan yerlarda o'zlari bilgan albatta ot larni yig'ib yurgan. Ularni kuni ot minishdan o'tkanini kitoblarda oqiganmiz.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Chingizxon yasog'i va Temur tuzuklari. Tuzuvchi B.Ahmedov. T: - 2020
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon\\_yasos](https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon_yasos)
3. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur. Harbiy san`ati, strategiyasi va taktikasi 2017y
4. Chongizxon yasog'u va Temur tuzuklari. T.: Info Capital Group
5. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur va Temuriylar davlati va huquqi T:2020

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon\\_yasosi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Chingizxon_yasosi)

<sup>3</sup> Ziyodulla Muqimov. Amir Temur va Temuriylar davlati va huquqi T 2020. 292b

